

O'zbek xalq dostonlarini o'z ichiga olgan yana bir yangi nashr

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining milliy madaniyatimizning ajralmas bir qismi bo'lgan baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish, uning milliy madaniyatimiz va san'atimizdagi o'rni va ahamiyatini yuksaltirish, yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaroridagi belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyati bo'limi bilan hamkorlikda filologiya fanlari doktori, professor Jabbor Eshonqulov hamda Nargiza Rahmatullayevalar tomonidan nashrga tayyorlangan "Xonoyim pari" kitobi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan nashr etildi.



Ushbu kitobda O'zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonovdan yozib olingan "Xonoyim pari", "Torkiston", "Sanam gavhar", "Kelinoy" va "Ollanzar Olchinbek" kabi dostonlar o'ziga xos ijro usuli, badiiyati bilan tamomila ajralib turadi.

"Xonoyim pari", "Torkiston" va "Sanam va Gavhar" "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi muhabbat haqidagi dostonlardir. "Kelinoy" va "Ollanzar Olchinbek"da esa epik ijodkorlik, ya'ni baxshichilik san'ati ulug'langan.

Bu kabi dostonlar faqatgina xalqining shonli o'tmishini hikoya qiluvchi adabiy yodgorlikkina emas, komil inson tarbiyasida muhim ahamiyatga ega, bugungi kunda tobora globallashib borayotgan jamiyatda o'zligini saqlab qolishning muhim omili, ertangi kungi ma'naviy-madaniy taraqqiyotning poydevori, millat va elatlar o'rtasida do'stlikni ulug'lovchi, insoniylikni tarannum etuvchi badiiy so'z namunasi ekanligi bilan muhim ahamiyatga ega.